ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RASULOVA SHAXNOZA MUSTAFAKULOVNA

XISLAT VA UNING ADABIY MEROSI

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133:801.8(092)Xislat

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological sciences

Rasulova Shaxnoza Mustafakulovna
Xislat va uning adabiy merosi 3

Расулова Шахноза Мустафакуловна
Хислат и его литературное наследие 25

Rasulova Shakhnoza Mustafakulovna
Xislat and his literary heritage 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 56

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RASULOVA SHAXNOZA MUSTAFAKULOVNA

XISLAT VA UNING ADABIY MEROSI

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/ Fil3026 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yakubov Islamjon Ahmedjanovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Islomova Soxibaxon Ismoiljonovna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Oz‘R FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 17-aprel soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (335 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ 5 ” 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil “ 5 ” 04 dagi 1- raqamli reyestr bayonnomasi)

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

Sh.S.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, akademik

KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon matnshunosligida badiiy adabiyotga doir qo‘lyozma manbalar, ularning turlari va matn tarixini o‘rganishdagi ahamiyati ustida izchil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Birlamchi manbalardagi ma’lumotlar, qo‘lyozmalar qiyosiy tipologiyasi ijodkor asarlarining eng ishonchli matnlarini tiklash imkonini berishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Matn tarixi, ilmiy-tanqidiy matn, adabiy asarlarning muallif dastxati bilan ko‘chirilgan nusxalarini nashr variantlari bilan qiyoslash singari ilmiy muammolar, ayniqsa, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning asosini tashkil etadi.

Dunyo matnshunosligining tadrijiy takomili va erishilgan ilmiy natijalar shundan dalolat beradiki, uzoq o‘tmishga doir boy qo‘lyozma manbalarga ega ekanligi millatning madaniyati va adabiy-estetik tafakkuri ildizlari ham qadimiy ekanidan dalolat beradi. O‘zbek adabiyotiga doir qo‘lyozmalar shuning uchun ham dunyo olimlarining e’tiborini tortib kelmoqda. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida litografik usulda kitob bosish texnologiyasining paydo bo‘lishi toshbosma nashrlar yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Gazeta nashr qilishning yo‘lga qo‘yilishi adabiy manbalarni yana bittaga ko‘paytirdi. Endi dunyo olimlari adabiyot namunalarini qo‘lyozma va toshbosma manbalardan tashqari, o‘sha davr matbuoti materiallari asosida ham o‘rganish imkoniga ega bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, matnshunoslikka doir manbalar ko‘lamini kengaytirdi.

O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti namoyandalari asarlarini birlamchi manbalar orqali o‘rganish, ularni matnshunoslikning so‘nggi yutuqlari asosida baholash dolzarb muammolardandir. Chunki “Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega”[1]. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida, umuman, jamiyatning har jabhasida tub burilishlar davri boshlandi. Xalqimizning ma’rifiy darajasini yuksaltirish, dunyo ilm-fani yangiliklaridan xabardor qilish, o‘zining haq-huquqlarini anglatish, milliy uyg‘onish g‘oyalari davr adabiyotida o‘z in’ikosini topdi. Toshkent adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri Sayid Haybatullohxo‘ja Sayid Orifxo‘ja o‘g‘li Xislat (1880–1945) adabiy merosi ana shu xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Shoir, mutarjim, bayoznavis, noshir, kotib sifatida tanilgan va tan olingan ijodkordan boy adabiy meros qolgan bo‘lsa-da, hanuzgacha uning ilmiy biografiyasi yaratilmagan, nazmiy asarlari monografik tadqiq etilmagan. Lirik turning g‘azal, muxammas, murabba, qasida, fard kabi janrlarida ijod qilgan shoir asarlari manbalarini o‘rganish, “Armug‘oni Xislat”, “Tuhfayi Xislat”, “Hadyayi Xislat” “Savg‘oti Xislat” bayozlari misolida uning bayoznavislik faoliyatini baholash, Haybatullohxo‘janing ilmiy biografiyasini tiklash, bizgacha yetib kelgan ikki ming misraga yaqin nazmiy merosi matn tarixini tadqiq qilish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

[1] Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 33.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda 2021-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 10-fevraldagi 61-sonli “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuviga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi Xislat she’riyati va shaxsiyatiga uning hayotligidayoq munosabat bildirilgan. “Armug‘oni Xislat” chop etilgach, Muhsiniy “Tavsifi Xislat eshon” sarlavhali she’rida uni Toshkent shoirlari ichida eng faol, tashabbuskor ijodkor sifarida vasf etgan[2]. “Bahrom va Gulandom” tarjimoni Abdulloh Mirzakarimboy Xislatning nazmdagi mahorati va noshirlikdagi tashabbusiga yuksak baho beradi[3]. “Hadyayi Xislat”ga munosabat bildirilgan[4].

1957-yili “Sharq yulduzi” jurnalida bosilgan “Xislat” maqolasi shoir ijodi keng miqyosda o‘rganilishini boshlab berdi. 60-yillardan keyin shoir she’rlari “Toshkent oqshomi” gazetasi va “Tirik satrlar” to‘plamida e’lon qilindi[5]. Abduhamid Jalolov Xislat hayoti va ijodi haqida maqolalar hamda tanlangan asarlarini chop ettirdi[6]. Doktorlik dissertatsiyasidan keng o‘rin ajratdi[7], “Xislat

---

[2] تركستان ولايتى نينک كزيتى // توصيف خصلت ايشان 1913-yil 7-aprel, №27.

[3] قصه بهرام و كل اندام Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. Инв. – №1229.

[4] Олимжон Ҳ. Жадид адабиётининг синфий моҳияти масаласига. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1982.

[5] Зокиров М. Хислат // Тошкент оқшоми. 1967, 15 март. – №62 (217); Тирик сатрлар: Танланган шеърлар (Тўпловчи: М. Зокиров; муҳаррир О.Шарафиддинов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968.

[6] Жалолов А. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. – №1; Ўзбек ёзувчиларининг таржимаи ҳоли. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. –№4; “Армуғони Хислат” баёзи саҳифаларини варақлаб // Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1969, 30 май. – №43; Хислат. Ғазаллар (Тузувчи ва сўзбоши муаллифи: А. Жалолов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971.

[7] Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XIX аср охири – XX аср бошлари). Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994.

ijodi haqida adabiy portret” risolasi nashr qilindi[8]. Ammo bu nashrlarda Xislat ijodiga asosan sinfiy nuqtayi nazardan yondashilib, uning asarlari mafkuraga moslashtirib talqin etilgan.

B.Nasriddinovning To‘ychi hofiz hayoti va ijodiga bag‘ishlangan xotira kitobida Xislat haqida muhim qaydlar bor[9]. M.Hamidova bayoznavis adiblar qatorida shoir bayozlari xususiyatlariga to‘xtalgan[10]. Xislat bayozlarining qisqacha ilmiy tavsifi R.Hojiyeva[11], B. Abdullayeva maqolalarida[12] ifodalangan. Shoir hayoti va adabiy faoliyatiga oid ma’lumotlar ba’zi xotiralar[13] va tazkiralarda ham aks etgan. Mo‘minjon Toshqinning “Toshkent shoirlarining tarjimayi hollari”[14] va Po‘latjon Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy”[15] asarlari shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida U.Otajon so‘zboshisi bilan “Tuhfayi Xislat”[16] bayozining nashrdan chiqqani shoir ijodini xalq ommasiga kengroq tanitdi. B. Qosimov[17], N.Karimov ma’ruza, monografiya hamda maqolalarida[18] shoir ijodiga keng o‘rin ajratilgan. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarda shoir biografiyasi va adabiy merosi yuzasidan tahliliy qarashlar bildirilgan[19]. 2007-yilda Muhammadali Qo‘shmoqovning “Issig‘dir so‘zing, o‘ylakim yulduzing...” maqolasi[20] nashr qilindi. Xislatning jiyani, san’atshunos Muzaffar Asadullayev va adabiyotshunos To‘xtamurod Zufarov shoir hayoti va ijodiga doir maqolalar,

---

[8] Жалолов А. Озодликни улуғлаб. – Тошкент: Фан, 1987.

[9] Насриддинов Б. Тўйчи ҳофиз (ҳаёти ва ижоди ҳақида). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971.

[10] Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981.

[11] Ҳожиева Р. Тошбосма баёзлар ўзбек адабиётини ўрганишда муҳим манба // Адабий мерос. – Тошкент, 1980. – №1 (13).

[12] Абдуллаева Б. Тошбосма баёзларнинг илмий тавсифи //Адабий мерос. – Тошкент, 1989. – №4 (50).

[13] Норхўжаев М. Шоир ва фозил одам эди // Тошкент оқшоми. – Тошкент, 1967, 15 март. –№ 62 (217); Абдулла С. Мавлоно Муқимий. Асарлар. 4 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978; Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983; Файзуллаев О. Шайх Зайниддин бобо шажараси // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1991. – №10 (444); Файзуллаев О. Шому саҳарлар оҳ уриб // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004, 23 январь. – №4 (3731); Озод Мўъмин Хўжа. Шайх Зайниддин Тошкандий – олим ва валий. – Тошкент: Movarounnahr, 2018.

[14] Mo‘minjon Toshqin. “Toshkent shoirlarining tarjimayi hollari” tazkirasi. Qo‘lyozma. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. II daftar.

[15] Пўлотжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. II жилд. – Тошкент: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998.

[16] Туҳфаи Хислат (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Урфон Отажон). – Тошкент: Мерос, 1992.

[17] Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002; Уйғонган миллат маърифати (Тўпловчилар: С.Аҳмедов, Р. Қўчқоров) – Тошкент: Маънавият, 2011.

[18] Каримов Н., Баракаев Р. Тошкент шоирлари. – Тошкент: Фан, 2007; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. 1-китоб. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008; Shu muallif. Абдулла Қодирий ва Тошкент адабий муҳити // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2013. – № 43-44.

[19] Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1994; Shu muallif. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004; Тўлабоев О. Каримбек Камийнинг ҳаёт ва ижод йўли. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2010; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2003; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007; Пардаев Қ. Муқимий шеъриятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2020; Нуриддинов Ш. Мулла Қўшоқ Мискин ҳаёти ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011; Жавҳарова Р. Сирожиддин Сидқий Хандақлиқийнинг адабий мероси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996.

[20] Қўшмоқов М. Иссиғдир сўзинг, ўйлаким юлдузинг... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2007, 11 май. – №19 (3899).

she’rlar va xotiralardan iborat “Tarannum” to‘plamini chop ettirdi[21]. To‘plamdan shoirning 50 dan ortiq g‘azal va muxammaslari, ta’rix va marsiyalari, ijodkor haqida zamondoshlari va yaqinlarining xotiralari o‘rin olgan.

Xislat ijodi turkiyalik olimlar tomonıdan ham o‘rganilgan. Olima Filiz Topçu 2014-yilda “Ḫışlet’in Armugan-i Hislet adli eserı (1–121 sayfaları arası)” mavzusida magistrlik dissertatsiyasini yoqlagan va hammualliflikda maqola e’lon qilgan[22].

Ushbu dissertatsiya Xislat ilmiy biografiyasi yaratilgani, asarlarining matn tarixi va tahriri, bayozlarining o‘ziga xos tuzilish tamoyillari kabi masalalar tadqiq etilgani, birlamchi manbalar asosida nazmiy asarlarining asliyat va nashr nusxalari qiyosiy tahlil etilgani jihatidan yuqoridagi tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Haybatullohxo‘ja Xislat hayoti va ijodiy merosiga oid manbalarni to‘plash, bayozlarining tuzilishidagi o‘ziga xosliklarni aniqlash, asarlarining matn tarixi va tahririni matnshunoslikning nazariy asoslariga tayangan holda tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Haybatullohxo‘ja Xislat hayoti va ijodiga oid yangi ma’lumotlarni aniqlash va ilmiy biografiyasini yaratish;

Xislat adabiy merosi manbalarini o‘rganish, ilmiy tasnif etish, nazmiy asarlarining hajmi va janr tarkibini belgilash;

“Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat”, “Hadyayi Xislat” toshbosma bayozlarining monografik tavsifini amalga oshirish;

Xislatning bayozlari va turli manbalardagi she’rlarining matn tarixini o‘rganish, asliyat va nashr nusxalarini qiyosiy-matniy tadqiq qilish;

ijodkor asarlari birlamchi manbalaridan shu paytgacha ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan she’rlarini aniqlash va ilmiy istifodaga olib kirish;

Xislatning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni va ijodining o‘ziga xos jihatlarini yoritish.

Tadqiqotning obyektini Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qo‘lyozmalar fondidagi 869, O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi 2102/1, 2561, 1502, 1000 raqam ostida saqlanayotgan qo‘lyozma manbalar, “Armug‘oni Xislat”, “Tuhfayi Xislat”, “Hadyayi Xislat” “Savg‘oti Xislat”, “Bayozi Haziniy”, “Bayoz maa gulshani ash’or”, “Bayozi O‘tab”, “Bayozi yangi”, “Bayozi muhallo”, “Savg‘oti Shavkat” toshbosma bayozlari va boshqa davriy nashrlar tashkil qiladi.

---

[21] Хислат. Тараннум (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари: М.Асадуллаев, Т.Зуфаров). – Тошкент: Merius, 2009.

[22] Topçu F. Ḫışlet’in ARMUGAN-I ḪISLET ADLI ESERI (1–121 sayfaları arası). Yüksek lisans tezġ. – İstanbul, 2014; Teres E., Topçu F. Ḫışlet Ve Armuġan-ı Ḫışlet Adlı Eseri Hakkında // Social mentality and researcher thinkers journal. ISSN: 2630-631X, Volume 4, Issue 12, Okt., 31, 2018.

Tadqiqotning predmetini Xislat ilmiy biografiyasiga oid yangi ma’lumotlar tahlili, shoir she’rlarining asliyat va tabdil nusxalari qiyosiy-matniy tadqiqi, bayozlarning o‘ziga xos tuzilish tamoyillarini aniqlash, ijodkor she’rlarini matn tarixi va tahriri nuqtayi nazaridan tadqiq qilish kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, matniy-qiyosiy, biografik, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat hayoti va adabiy merosiga oid qo‘lyozma va toshbosma manbalar, o‘sha davr matbuoti materiallari, shoirning o‘z qo‘li bilan yozgan tarjimayi holi, shajarasiga doir hujjatlar hamda “Toshkent shoirlarining tarjimayi hollari” va “Tazkirayi Qayyumiy” tazkiralaridagi ma’lumotlar qiyosiy tekshirilib, ijodkorning ilmiy biografiyasi yaratilgan;

shoir tomonidan nashr ettirilgan “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat”, “Hadyayi Xislat” bayozlarining monografik tavsifi amalga oshirilib, tuzilish tamoyillari hamda mazkur bayozlar shoir hayoti va ijodi haqida qimmatli ma’lumot beruvchi adabiy manbalardan ekani aniqlangan;

ijodkor asarlarining, xususan, shoir qalamiga mansub “Qissayi kurash az Xislat” masnaviysining matn tarixi tekshirilib, qo‘lyozma, toshbosma bayozlar va nashr variantidagi matniy tafovutlar sabablari aniqlangan hamda asliyatga muvofiq ishonchli matnlari tiklangan;

Xislatning bizga ma’lum adabiy merosining ko‘lami 2000 misra ekanligi manbalar asosida isbotlangan, she’rlariga muallif kiritgan tahrirlarning sabablari izohlangan hamda ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan 200 misraga yaqin nazmiy asarlari aniqlanib, ilmiy istifodaga olib kirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Xislat hayot yo‘liga oid yangi manbalar, ma’lumotlar asosida shoir ilmiy biografiyasi yaratilgan;

“Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat” hamda “Hadyayi Xislat” bayozlari monografik tavsif etilib, ularning tuzilish tamoyillari aniqlangan, to‘plamlardagi shoirlar ro‘yxati shakllantirilib, janrlar bo‘yicha tasnifi amalga oshirilgan;

Xislatning tarjimonlik, noshirlik faoliyati ilmiy asoslanib, chop ettirgan kitoblari aniqlangan;

qo‘lyozma va toshbosma to‘plamlardagi she’riy matnlarning qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshirilib, muallif tahrirlari aniqlangan va ularga izoh berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi birlamchi manbalarga tayanilgani, tahliliga tortilgan materiallarning matnshunoslik aspektida ko‘rib chiqilgani, asosiy va yondosh manbalar asosida dalillangani, amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning zamonaviy-ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Haybatullohxo‘ja Xislatning hayoti va adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitishi, bayozchilik an’anasiga qo‘shgan

hissasi dalillangani hamda shoir bayozlarining tuzilish tamoyillari aniqlangani, asarlarining matn tarixi o‘rganilib, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalari uchun “Matnshunoslik nazariyasi”, “Adabiy manbashunoslik tarixi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, xususan, Toshkent adabiy muhiti, Xislat merosi bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat adabiy merosining manbalari va matniy tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat asarlari kiritilgan manbalar hamda shoir tomonidan nashr ettirilgan “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat”, “Hadyayi Xislat” bayozlarining tuzilish tamoyillari hamda mazkur bayozlar shoir hayoti va ijodi haqida qimmatli ma’lumot beruvchi adabiy manbalardan ekaniga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2023-yillarda bajarilgan “IL-52 tur-21091433 raqamli “O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish” (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 31-oktyabrdagi 04/1-3106-son ma’lumotnomasi). Natijada “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat” hamda “Hadyayi Xislat” bayozlarining monografik tavsifi, ularning o‘ziga xos tuzilishi, janrlar tasnifi hamda shoir biografiyasini tiklashda muhim manbalardan ekanligi bilan bog‘liq ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

ijodkor asarlarining, xususan, shoir qalamiga mansub “Qissayi kurash az Xislat” masnaviysining matn tarixi, qo‘lyozma, toshbosma bayozlar va nashr variantidagi matniy tafovutlar sabablari hamda asliyatga muvofiq ishonchli matnlarni tiklash haqidagi ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2023-yillarda bajarilgan “IL-52 tur-21091433 raqamli “O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish” (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 31-oktyabrdagi 04/1-3106-son ma’lumotnomasi). Natijada Xislat asarlarining asliyat hamda nashr variantidagi tafovutlarning sabablari hamda shoir she’rlarining birlamchi manbalarga muvofiq matnlarini tiklash bilan bog‘liq ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining davr nuqtayi nazaridan xilma-xilligini ta’minlagan;

Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat hayoti va ijodining birlamchi manbalari asosida uning ilmiy biografiyasi va oilaviy muhiti haqidagi mavjud qarashlar yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirilgani hamda shoirning shajarasiga oid qo‘lyozmalar tahliliga oid xulosalardan Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan “ПФ-201912258 raqamli “O‘zbek

adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 31-oktyabrdagi 04/1-3107-son ma’lumotnomasi). Natijada Xislat ilmiy biografiyasiga oid yangi ma’lumotlar tahlili, XX asr adabiy hayoti, ijtimoiy voqelikning badiiy adabiyotdagi ifodasi hamda shoirlarning o‘zaro ijodiy muloqotlari bilan bog‘liq ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

Xislatning bizga ma’lum adabiy merosining ko‘lami 2000 misra ekanining manbalar asosida isbotlangani, she’rlariga muallif kiritgan tahrirlarning sabablari izohlangani hamda ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan 200 misraga yaqin nazmiy asarlari aniqlanib, ilmiy istifodaga olib kirilganligi to‘g‘risidagi ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan “ПФ-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 31-oktyabrdagi 04/1-3107-son ma’lumotnomasi). Natijada ijodkor nazmiy asarlarining monografik tavsifi, qo‘lyozma va toshbosma manbalardagi she’riy matnlarning qiyosiy-matniy tadqiqi, muallif tomonidan amalga oshirilgan tahrirlar, matn tarixiga doir ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining ilmiyligini oshirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusu bo‘yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shulardan 2 tasi yuqori impakt-faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 131 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Xislat biografiyasi, adabiy merosining ko‘lami va manbalari” deb nomlanib,** 1.1§da ***“Shoir ilmiy biografiyasi asoslari”*** yoritilgan. Shoir tavallud sanasini A.Jalolov, M.Hamidova, B.Qosimov, N.Karimov

1880-yil[23], Mo‘minjon Toshqin 1880-1882-yil, Po‘latjon Qayyumov, M.Asadullayev va T.Zufarov esa 1882-yil[24] deb ko‘rsatadi. Xislat haqida ma’lumot beruvchi manbalardan biri – uning tarjimayi holidir. Shoirning dastxat tarjimayi holi 1969-yili “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e’lon qilingan. Unda shoir: *“Men 1880-yilda bog‘dor oilasida tug‘ilib, 6 yoshimda maktabga kirib, 9 yoshimda she’r yoza boshladim”*,[25] – deb yozgan. Shunga ko‘ra, Xislat 1880-yili tavallud topgan, degan to‘xtamga kelish mumkin.

Omonulla Fayzullaxo‘ja o‘g‘li shoir shajarasini e’lon qilib, shunday yozadi: *“Bizning ajdod-avlodlarimiz Ko‘kcha dahasida Shayx Zayniddin bobo (1164–1259) qabristonining etaklarida 800-yildan beri yashab kelmoqdamiz. Mashhur shoir Xislat – Shayx Zayniddin shajarasining 43-avlodlaridan biridir”*[26]. Shajaraga ko‘ra, Haybatullohxo‘ja oiladagi uchinchi farzand, besh o‘g‘ilning ikkinchisidir.

A.Jalolov ma’lumotlariga ko‘ra, Haybatullohxo‘ja uch yoshga to‘lganda uni farzandsiz ammasi Risolatxon tarbiyasiga olgan[27]. Toshqinning fikricha, shoirning dadasi Orifxo‘ja aka qalandartabiat odam bo‘lib, uni buvasi bilan buvisi tarbiya qilgan[28]. Buvisi Shamsi oyim Haybatullohxo‘janing ziyrakligini anglab, 7 yoshga yetganda dastlab “Ko‘kcha”dagi o‘qimishli bir ayolga, so‘ngra “Ishqobod” mahallalidagi Roziya otinga ilm olishga yuboradi. Haybatullohxo‘ja 1898-yildan “Ko‘kaldosh” madrasasida tahsil ola boshlaydi. Otasining bog‘dorchilik bilan topayotgan mablag‘lari serfarzand oilaning ehtiyojlarini ta’minlay olmas edi. Shoir uylangandan keyin iqtisodiy tanglikka duchor bo‘ladi. Bu haqda o‘zi shunday yozadi: *“O‘qishim bilan barobar iqtisod tarafidan siqila boshladim. Yordam beruvchi kishim bo‘lmagani uchun Qoraxo‘ja degan fonuschi ustaga shogird bo‘lib fonus qilishni o‘rgandim... So‘ngra “Qo‘rg‘ontegi” mahallali Usta Soliga shogird bo‘lib, deraza, eshik qilishni o‘rgandim”*[29]. Haybatullohxo‘ja Usta Soli qo‘lida uzoq ishlay olmay, boshqa duradgor Usta Komilga shogird tushadi. Usta Komil unga duradgorchilikning nozik sirlarini o‘rgatadi. Shoir umrining oxirigacha bu hunarga sodiq qoladi. Ilm olish, she’r yozishni bir zum bo‘lsa-da, tark qilmaydi. Xislat 90-yillarda “Xo‘ja Ahror” madrasasida Muxtorxon, keyinroq “Kesakqo‘rg‘on” madrasasida Shomuhiddin ismli mudarrislardan tahsil olgan[30].

Unda she’riyatga muhabbat uyg‘onishida Karimbek Kamiyning xizmatlari katta. Xislat ustozi Kamiy vositasida Yusuf Saryomiy, Muhyi Xo‘qandiy, Sayid Ahmad Vasliy kabi mashhur shoirlar bilan tanishadi. “Tazkirayi Qayyumiy”da yozilishicha: *“Haybatullohxo‘ja arabiy, forsiy tillardan xabardor olim shoirdur.*

---

[23] Жалолов А. Озодликни улуғлаб. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 9; Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.112; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 302; Каримов Н. XX аср адабиёт манзаралари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008. – Б. 62.

[24] Mo‘minjon Toshqin. “Toshkent shoirlari...”. Qo‘lyozma. O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi fondi. II daftar. – B. 92; Пўлатжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. II жилд. – Тошкент: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти, 1998. – Б. 448; Хислат. Тараннум. – Тошкент: Merius, 2009. – Б. 3.

[25] Жалолов А. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – №4. – Б. 70.

[26] Омонулла Сайид Файзуллахўжа ўғли. Шайх Зайниддин бобо шажараси // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1991. – №10. – Б. 16.

[27] Хислат. Ғазаллар (Тузувчи ва сўзбоши муаллифи: А.Жалолов). – Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 5.

[28] Мўминжон Тошқин. “Тошкент шоирлари...” тазкираси. Қўлёзма. Давлат адабиёт музейи. II дафтар. – Б. 93.

[29] Жалолов А. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968. – №1. – Б. 35.

[30] Жалолов А. Озодликни улуғлаб. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 9.

Muqimiy va Furqatlarning hayotiy davrida yangi shoirlardan bo‘lub, bulardan so‘ngra shuhratli shoir bo‘lmishdur”[31].

Xalqona she’rlari bilan tanilayotgan shoir Sarvixon ismli qizga uylanadi. Ular Malohat, Nisbatxon, Sadoqat ismli farzandlar ko‘radi. Malohat 4 yoshida, Nisbatxon 4 yoshdan 5 ga qadam qo‘yganda qizamiqdan vafot etadi. Unga bag‘ishlangan marsiya shoir bayozida bosilgan[32]. Farzandlari vafotidan tushkunlikka tushgan shoir ijoddan taskin topadi. 1910-yillardan noshirlik bilan shug‘ullanadi. “Hadyayi Xislat” (1910) , “Armug‘oni Xislat” (1912), “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat” (1914) bayozlarini, Umar Boqiyning “Xamsa” dostonlariga nasriy bayonlarini “Kulliyoti Farhod-u Shirin” (1908), “Layli va Majnun kitobi” (1909) nomi ostida suratlar bilan bezab nashr ettiradi. Tarjimon sifatida fors va arab hikoyalaridan tuzilgan “Non va halvo” she’riy to‘plamini, “Ta’birnoma”, “Qissayi Tamim sahoba” kitoblarini, Eron shoiri Ubayd Zokoniyning bolalarga mo‘ljallangan “Mush-u gurba” (“Mushuk ila sichqon”) nazmiy qissasini tarjima qilib chop ettirgan. Sidqiy Xondayliqiy bilan hamkorlikda “Qissayi Barzuyi sher”, Nizomiy Ganjaviyning “Layli va Majnun”idan parchalarni fors-tojik tilidan tarjima qilgan. Po‘lotjon Qayyumov e’tiroficha, Xislat ijodining eng kuchli davri she’riy to‘plamlari nashr etilgan 1910-yillarga to‘g‘ri keladi[33]. Habibulla Qodiriy Xislatning “...*o‘rta bo‘y, qoracha, to‘lachadan kelgan, o‘siq qora qosh, mosh-guruch soqolli, ochiq chehra, kulib so‘zlovchi, serzavq, xoksortabiat, o‘rta yosh kishi”* [34] ekani haqida yozgan.

1914-yili Sarvixon aya vafot etadi. Shoir 35 misrali “Marsiya az Xislat eshon” sarlavhali muxammas yozadi[35]. 1917-yillarda Xislat Sharofatxon ismli ayol bilan ikkinchi bor oila quradi. Farzand dunyoga kelganda fevral inqilobi yuz beradi. Turkiston ziyolilari qatorida Xislat ham bu o‘zgarishlarni quvonch bilan qarshi oladi va yangi tug‘ilgan o‘g‘liga Hurriyatxon deb ism beradi. Keyinroq bu ismni Barakatulloh deb o‘zgartiradi[36]. 1927-yildan boshlab avval “Selmash”, keyin “Yog‘ochsozlik” zavodlarida, bosmaxonada va “Poyabzal” fabrikasi qurilishida duradgor bo‘lib ishlaydi. Keksayib, dardmand bo‘lib qolgan shoir uchun bu ishlar og‘irlik qiladi. 1941-yili hukumat idoralariga yordam so‘rab ariza yozadi. 1942-yili Yo‘ldosh Oxunboboyev Usmon Yusupov bilan maslahatlashib, 6 banddan iborat yordam tayinlaydi. Biroq bu qaror qisman bajarilib, qolgani qog‘ozda qolib ketadi. Sog‘ligidagi muammolar sabab bu mukofotni to‘liq olishga harakat qilmaydi.

Haybatullohxo‘ja Xislat 1945-yil 7-iyun payshanba kuni “ziqqi nafas” (nafas qisish) kasalidan vafot etgan, “Ko‘kcha” qabristoniga dafn etilgan. Xislatning 13 nafar farzandi bo‘lib, ko‘pi yosh chog‘ida vafot etgan. Shoirdan 2 o‘g‘il, 2 qiz qolgan. To‘ng‘ich qizi Sadoqatxon shoirning birinchi turmush o‘rtog‘i Sarvixon ayadan yodgorlik bo‘lib, ikkinchi turmush o‘rtog‘i Sharofatxon ayadan

---

[31] Пўлотжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. II жилд. – Тошкент: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 449.

[32] ارمغان خصمت. Bayoz. Toshbosma. O‘zR FA SHI Asosiy fondi. Inv. – № 4063. – Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1912. – B.190.

[33] Пўлотжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. II жилд. – Тошкент: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 449.

[34] Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 91.

[35] Туҳфаи Хислат (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Урфон Отажон). – Тошкент: Нур, 1992. – Б. 29.

[36] Хислат. Тараннум. – Тошкент: Merius, 2009. – Б. 9.

Barakatulloh, Olamgir ismli ikki o‘g‘il va Tarovatxon ismli qiz farzand ko‘rgan. Shoirning avlodlari hozirda Toshkentning “Ko‘kcha” dahasida istiqomat qiladilar.

1.2 § ***“Ijodkor adabiy merosining qamrovi va manbalari tavsifi”*** deb nomlangan. Shoirning bizgacha yetib kelgan asarlari manbalari quyidagicha tasniflandi: 1) Xislat tuzgan bayozlar va toshbosma kitoblar; 2) shoirning zamondoshlari tomonidan tuzilgan bayozlar; 3) tazkiralardagi ma’lumotlar; 4) davriy nashrlar (to‘plam, jurnal, gazeta).

Xislat tuzgan bayozlar va toshbosma kitoblar. Bayozlar ijodkorlar haqidagi muhim ma’lumotlarni taqdim etishi jihatidan qimmatlidir. Xislat nazmiy merosi, asosan, o‘zi tuzgan bayozlarda yetib kelgan, ular quyidagilardir:

869 (avval “56-bayoz”) raqam ostida saqlanuvchi qo‘lyozma bayoz. Undan Xislat ijodiga oid 30 ta she’r: 25 ta g‘azal, 3 muxammas, 1 fard, 1 she’riy qissa o‘rin olgan. “Savg‘oti Xislat”da shoir qalamiga mansub 4 ta: 2 g‘azal, 2 muxammas; “Armug‘oni Xislat”da 25 ta: 2 to‘rtlik, 14 g‘azal, 8 muxammas, 1 marsiya; “Tuhfayi Xislat”da 5 ta – 3 g‘azal, 1 muxammas, 1 marsiya; “Hadyayi Xislat”da 6 ta: 4 g‘azal va 2 muxammas; Xislat bayozlarida jami 70 ta: 2 to‘rtlik, 48 g‘azal, 16 muxammas, 1 fard, 2 marsiya, 1 she’riy qissa o‘rin olgan. Dissertatsiyada mazkur manbalar mufassal tavsif etilgan.

Shoir nazmiy asarlari nafaqat o‘z bayozlarida, balki o‘zi tarjima qilib nashr ettirgan “Kulliyoti Farhod-u Shirin”[37], “Qissayi Barzuyi sher”[38], “Qissayi Tamim sahoba”[39] kabi asarlar kirgan manbalarda, shuningdek, shoirning zamondoshlari tomonidan tuzilgan bayozlarda[40] ham uchraydi. Bundan tashqari, Xislat she’rlari “Bayozi Haziniy” (inv. 317), “Bayozi yangi” (inv. 346), “Bayoz maa gulshani ash’or” (inv. 325), “Bayozi muhallo” (inv. 321), “Bayozi mulla Murtazo va mulla O‘tab” (inv. 336), “Bayozi mulla O‘tab” (inv. 333) “Savg‘oti Shavkat” (инв. 10184) bayozlariga nazmiy asarlari kiritilgan. Ishda ularga tavsif berilgan. “Toshkent shoirlari” va “Tazkirayi Qayyumiy”da shoir biografiyasiga hamda she’rlaridan namunalar mavjud. Ishda ushbu manbalarning batafsil ilmiy tavsifi keltirilgan.

Xislat 1916 (1334)-yilda Tavalloning “Ravnaq ul-islom” to‘plami nashri munosabati bilan 6 misrali ta’rix yozgan[41]. She’rlari “Sadoyi Turkiston”da[42], “Mushtum”da[43] va “Sabzazor” to‘plamida bosilgan. Bulardan tashqari, shoir she’rlari turli yillardagi matbuot sahifalari, antologiya va to‘plamlardan o‘rin olgan[44]. Ayni paytda shoir she’rlaridan tuzilgan “G‘azallar” (A.Jalolov, 1971) hamda “Tarannum” (M.Asadullayev, T.Zufarov, 2009) to‘plamlari shoir ijodini o‘rganishda, xalqqa tanitishda asosiy manbalardan sanaladi.

---

[37] O‘zR FASHI Asosiy fondidagi 15728, 16522, 17731, 17906, 20145 raqamli manbalar.
[38] O‘zR FASHI Asosiy fondidagi 87, 88 raqamli manbalar.
[39] O‘zR FASHI Asosiy fondidagi 479 raqamli toshbosma manbada.
[40] O‘zR FASHI Hamid Sulaymonov fondidagi 1502/ I, 2102/I, 2561, 1000 raqamli qo‘lyozma bayozlarda.
[41] رونق الاسلام. Toshbosma. O‘zR FASHI Asosiy fondi. Inv. – № 403. – Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov, 1916. – B. 61.
[42] صدای توركستان, 1914-yil, 21-aprel, 6-soni.
[43] خصلت موشتومنينک تويغه شاعر خصلتينک ارمغانی// Mushtum, 1927-yil 48–49-son. – B. 7.
[44] Хислат шеърлари // Тошкент оқшоми. 1967, 15 март. – № 62 (217); Eng sara mumtoz ashulalar – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018. – B. 67; Ватан ва миллат муқаддасдир. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 60; Хислат. Бормикин афсона бўлғон ёр учун Хислат каби // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2019. – №11. – Б. 4–7; O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 374.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Xislat bayozlarining adabiy manba sifatidagi qimmati”** deb nomlangan bo‘lib, 2.1§da ***“Ijodkor bayozlarining monografik tavsifi”*** keltirilgan. Xislat tomonidan tuzilgan toshbosma bayozlar mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining noyob asarlarini o‘zida jam etgan manbalardir. Bu bayozlarga shoirning o‘zi yuksak baho berib, tarjimayi holida quyidagilarni yozgan: “Men tuzgan bayozlar: “Armug‘oni Xislat”, “Hadyayi Xislat”, “Tuhfayi Xislat”, “Savg‘oti Xislat”... Mening bayozimda she’ri yozilgan shoirlarning ko‘pi – Furqat, Muqimiy kabilar menga zamondosh. Shuning uchun ham mening bu bayozlarim XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarini o‘z ichiga olgan o‘zbek adabiyoti tarixining eng boy va eng nodir xazinasi hisoblanadi”[45]. Ushbu bayozlar tadqiqi Xislatning yuksak didini namoyon etibgina qolmay, shoir dunyoqarashi, ruhiy olamini o‘rganishda ochqich vazifasini bajaradi.

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qo‘lyozmalar fondidagi 869 inventar raqamli qo‘lyozma bayoz. Shoir lirik merosining asosiy qismi o‘rin olgan qo‘lyozma adabiyotshunoslikda “56-bayoz” nomi bilan mashhur. G‘ulom Karimovning yozishicha: “Qo‘lyozmaning Toshkentda tuzilgani ko‘rinib turadi. Birinchidan, kitobda Toshkent shoirlariga katta o‘rin berilgan, ikkinchidan, kitob sohibi “A’zamxon Ikramxonov” toshkentlik bo‘lgan (bu kitobning juda ko‘p betlarida uchraydigan muhr – shaxsiy kishi pechatidan ma’lum bo‘ladi, bu pechatda yuqoridagi ism va familiya o‘zbek va rus tilida o‘yilgandir”[46].

Bayozning hajmi: 252 varaq. Matn sarg‘ish rangli fabrika qog‘oziga ko‘k, qora rangli siyohda ikki ustun qilib ko‘chirilgan. Sahifalari alohida raqamlangan, shuningdek, poygir belgilari ham mavjud.

Boshi: روز شب حقدین تیلایدورمن وصالینکنی اوکا

Oxiri: تزُکی تزُکی سویلاب آخر تابغوسی تدبیرنی

Bayoz sahifalarining asosiy matnidan Xislatning 23 ta she’ri o‘rin olgan 16, 154, 158, 159, 250, 298-betning hoshiyalariga 6 ta she’ri ko‘chirilgan. E’tiborlisi, boshqa birorta ijodkorlarning she’rlari hoshiyada uchramaydi. Bayoz hijriy 1329, milodiy 1911-yil 9-noyabrda tugallanganligi so‘nggi sahifalarda yozib qo‘yilgan. To‘plamdan Navoiy, Fuzuliy, Kamiy, Almaiy, Amiriy, Muqimiy, Vasliy, Xilvatiy, Ubaydiy, Jomiy, Huvaydo 50 ga yaqin shoirlar va Xislat ijodidan namunalar keltirilgan. She’rlar, asosan, o‘zbek tilida bo‘lib, lirikaning g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy, fard kabi janrlarida bitilgan.

هَدیه خصلَت “Hadyayi Xislat” bayozi shoir tomonidan tuzilib nashr ettirilgan ilk toshbosma bayoz. O‘zR FASHI Asosiy fondida 338, 341, 9602, 660 raqamlari ostida saqlanadi. To‘plam 1910-yil Toshkentda G.Yakovlev matbaasida nashr etilgan. Och sariq rangli karton bilan muqovalangan. Kotibi: سراج الدین مخدوم Sirojiddin maxdum (Sidqiy Xondayliqiy). O‘lchovi: 21x13 sm. Hajmi: 24 sahifa.

Boshi: ایتای عرضیم ایشیتینک اهل دهنش

Oxiri: سوز کلشنیده هوا قیلورمن

Bayoz o‘z davrining mashhur san’atkorlaridan Hamdamxon Haydaraliyevga (1887–1922) bag‘ishlab yaratilgan. Jami she’rlar soni 20 ta:12 g‘azal, 7 muxammas,

[45] Жалолов А. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969. –№4. –Б.71.

[46] Муқимий. Асарлар тўплами. II жилд. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1960. – Б. 168.

1 masnaviy bo‘lib, ular Hamdamxon, Kamiy, Zululiy, Muhyi, Vasliy, Xoriy va Xislat qalamiga mansub. Hajm jihatdan eng katta she’r Hoji Hamdamxonga tegishli. She’r matni 35 band bo‘lib, muxammas shaklida yozilgan.

ارمغان خصلت “Armug‘oni Xislat” bayozi O‘zR FASHI Asosiy fondida inventar 320, 4063, 12555, 13002, 13860, 13861, 18681 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz Toshkentda (1329) 1912-yilda G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan. Hajmi: 240 sahifa. O‘lchovi: 23x14. Muqovasi qizil kartondan ishlangan. Kotibi: Sirojiddin maxdum. Homiy: hofiz Mulla To‘ychi Toshmuhammedov (1868–1943).

Boshi: حمدو ثنالاریکی ثری برله سما اهلی تیلیدین کیلغولوق دو ر

Oxiri: اول خلیل الله نی بول کون یاد ایتیت

Haybatullohxo‘ja sohibi devon bo‘lmasa-da, “Armug‘oni Xislat” bayozi xalq orasida “Devoni Xislat” nomi bilan mashhur bo‘lib, shoir uning sarbayozini devonchilikdagi an’anaga ko‘ra debocha bilan boshlagan.

“Armug‘oni Xislat” bayozidan Navoiy, Bedil, Hofiz, Lutfiy, Sa’diy, Sayyido, Amiriy, Komil Xorazmiy, Tajalliy, Yusuf Saryomiy, Qoriy, Pirimqori Andijoniy, Xusrav, Muqimiy, Zavqiy, Vasliy, Furqat, Miskin, Kamiy, Hoziq, G‘ulomiy Toshkandiy, Munis Toshkandiy kabi 50 dan ziyod shoirlar hamda Xislat ijodidan namunalar keltirilgan. Janr tarkibi, asosan, g‘azal va muxammaslardan iborat, she’rlar o‘zbek va fors-tojik tillarida bitilgan. Bayozdagi she’rlar soni 145 ta – miqdor jihatdan g‘azal (90) va muxammas (38) yetakchilik qiladi. Qolganlari qasida, qit’a, marsiya, ta’rix, tarji’band, masnaviy, fard va to‘rtliklardan iborat. To‘plam tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sahifalarda keltirilgan she’r matnlaridan avval uning qaysi maqom turida kuylanishi qayd etilganidir. Masalan: Xislatning quyidagi she’ri “Taronayi dugoh”da kuylanishi matn sarlavhasida keltirib o‘tilgan:

هجرینکده بس اولدورمه اندیشهِ فردا قیل
کیل امدی منکه جانا وصلینکنی مهیا قیل

“Armug‘oni Xislat”dagi she’rlarning aksari – 16 tasi “Dugoh” maqomida; “Bayot” kuyida – 12 ta, “Chorgoh” yakkaxonlikda – 7, “Xo‘qandcha”da – 6, “Nolish”, “Tarannum”, “Girya”, “Navo” maqomida – 4, “Nasrulloyi”va “Ushshoq”da – 3, “Gulyor”, “Dilxirosh” kuylarida 1 tadan she’r matni kiritilgan.

سَوغات خصلت “Savg‘oti Xislat” O‘zR FASHI Asosiy fondida 347, 348 raqamlari bilan saqlanadi. Bayoz 1914 -yil Toshkentda O.A.Porsev matbaasida chop etilgan. Hajmi: 128 sahifa. O‘lchovi: 13x8 sm. Kotibi: Qori Mirzo Ahmad bin Rizo Muhammad Shoshiy. Bayoz muqovasi malla rangli kartondan ishlangan. Matnlar chiroyli nasta’liq xatida, ikki ustunga qiya holatda ko‘chirilgan. Sahifalardagi matnlar uchun bezak sifatida turli xil: qizil, jigarrang, to‘q ko‘k, qora, yashil ranglardan foydalanilgan. Bayozning unvon sahifasida hadisdan iqtibos keltirilgan: اِنَّ مِن الشِّعرِ لَحِكمَةً و اِنَّ مِن البَيَانِ لَسِحرًا (Inna min ash-she’ri lahikmatan va inna minal bayani lasehron). Mazkur hadis sahih hisoblanib, Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asarida 669-tartibida joylashgan.

She’rlarga quyidagicha sarlavhalar qo‘yilgan: *“Pirimqori Andijoniyning janob Xislat eshong‘a Andijondandan yuborg‘on g‘azallaridur”, “Bu musaddas qorabuloqliq Abdulxay maxdum mutaxallisi ba Roiq Hoji Muhammad domla sha’nlarida aytgan tab’i nazmidur”* va h.k. Bayozda jami 21 shoir, shu jumladan

Xislat ijodidan namunalar keltirilgan. She’rlar 64 ta: 45 g‘azal, 12 muxammas, 2 fard, 1 tadan musaddas, mustazod, marsiya, murabba, tuyuq janrlariga oid.

تحفه خصلت “Tuhfayi Xislat ” O‘zR FA SHI Asosiy fondida inventar 665, 3980, 9603, 20386 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz 1914-yil Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan. Hajmi: 24 sahifa. O‘lchovi: 23x13 sm. Kotibi: Qori Mirzo Ahmad bin Rizo Muhammad Shoshiy. Homiy: Mullo Zafar bin Shukur Muhammad maxdum. Unvon sahifasi gulli jadval bilan bezatilgan. Bayozdan 10 nafar shoir va Xislatning o‘z ijodidan namunalar keltirilgan. Jami she’rlar soni 23 ta: 14 ta g‘azal, 8 ta muxammas, 1ta marsiya. Noqis qalamiga mansub bitta g‘azal fors-tojik tilda, qolgan barchasi o‘zbek tilida yozilgan.

Ikkinchi bobning 2.2§da ***“Bayozlardagi she’rlar tasnifi va matn xususiyatlari”*** yoritilgan. Xislat bayozlaridagi she’rlarning mavzu-mundarijasini quyidagicha tasnif etish mumkin: a) diniy-falsafiy; b) ishqiy va v) ijtimoiy.

Diniy-falsafiy. Xislat bayozlaridan o‘rin olgan diniy mazmundagi she’rlar asosan hamd, munojot va na’tlardir. Shayx Ahmad Taroziy fikricha: “Tengri azza va jallaga hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo alayhissalotu vassalomni vasf qilsalar, na’t derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru qilsalar, munojot o‘qurlar”[47]. Shoir bayozlarida 3 hamd, 9 munojot, 13 na’t ruhidagi she’rlar mavjud bo‘lib, ular, g‘azal, muxammas, masnaviy, to‘rtlik shakllarida yozilgan. Jumladan, “Savg‘oti Xislat” bayozi(2-bet)dagi:

Xudovandiki aylar abr dudidin sharar paydo,
Qilur har shayda o‘zga xosiyat, o‘zga asar paydo –

matla’li hamd g‘azal Muhayyir qalamiga mansub.

Shoir bayozlaridan haj ziyorati bilan bog‘liq she’rlar ham o‘rin olgan. Bunday she’rlarning hajm jihatlan salmoqlisi Furqat “Hajnomasi”dir. Shuningdek, “Savg‘oti Xislat”da Pirimqorining *“Ko‘nglumg‘a tushub shavqi ziyorati Madina, Har dam chekaram oh, Afsus, vatan tutsam edi anda Haramda, Ul joyi sharafgoh”* satrlari bilan boshlanuvchi mustazodi keltirilgan. Bayozlardan bu mavzudagi she’rlar o‘rin olishi tasodifiy emas. Chunki shoirning o‘zi bir umr haj ziyoratini orzu qilgan:

Nasibim, yo Rab, et joyi Madina,
Bo‘lay to rohipaymoyi Madina,
Xayolimda tamoshoyi Madina,
Tushub dilg‘a tamannoyi Madina,
Bo‘lubman turfa shaydoyi Madina (“Armug‘oni Xislat”, 136-b.).

She’r mazmunidan anglashiladiki, shoir Madina shahridagi payg‘ambarimiz ravzalariga borishni orzu qilgan, xayolan uni ziyorat qilgan. Ammo bunga imkonsiz ekanini *“Netaykim, borg‘ali yo‘q menda qudrat, Aninchun tortaram g‘am birla kulfat”* misralarida ifoda etgan. Bunday she’rlar Xislatning orzulari bilan bog‘liq.

Ma’lumki, XX asr avvalida Toshkentda bedilxonlik majlislari qilingan. Xislat mashhur yetti bedilxondan biri sanalgan. “Tuhfayi Xislat”da Bedilning mashhur baytiga sharh sifatida yozilgan g‘azallar tartib bilan joylashtirilgani buning isbotidir.

[47] Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун-ул балоға (Нашрга тайёрловчи: А.Ҳайитметов). Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. – №1. – Б. 76.

Ishqiy mavzudagi she’rlar. O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos an’anaga ega bo‘lgan ishqiy mavzudagi “Qil” radifli g‘azal va unga o‘xshatmalar “Armug‘oni Xislat”dan o‘rin olgan. She’r matnlaridan avval ularning qaysi maqom turida kuylanishi qayd etilgan va ketma-ket joylashgan:

“Taronayi dugoh”

Hajringda bas o‘ldurma andishai fardo qil,
Kel emdi menga jono vaslingni muhayyo qil. (Xislat, 23-bet)

“Savti dugoh”

Mahvasho, haramdin chiq orazing namoyon qil,
Oy-u kunni xijlatdin abr ichig‘a pinhon qil. (Miskin, 27-bet)

Ifoda shakli, vazn-qofiya va badiiy san’atlarning ishlatilishi jihatidan Amiriy davridan boshlangan tatabbunavislik an’anasi Xislat bayozlarida ham o‘z aksini topgan. Ishqiy g‘azallarda ko‘p qo‘llanadigan badiiy san’at muvashshahdir. Xislat bayozlarida 21 ta muvashshah san’ati qo‘llangan she’rlar mavjud bo‘lib, ular Noqis, Vasliy, G‘ulomiy Muqimiy kabi shoirlar qalamiga mansub.

Ijtimoiy she’rlar. Xislat bayozlaridagi ijtimoy mavzularda yozilgan she’rlarni quyidagicha tasniflash mumkin: *a) bayoz nashr etilishi munosabati bilan yozilgan; b) shaxslar vafoti munosabati bilan; s) adabiy maktub shaklidagi; e) davr voqeliklari aks etgan she’rlar.*

Bayoz nashr etilishi munosabati bilan yozilgan she’rlar. Haybatullohxo‘ja ijod qilgan davrda biror kitob, to‘plam, jurnal yoki gazeta nashr etilsa, unga bag‘ishlab shoirlar tomonidan ta’rixlar bitish an’ana tusini olgan. “Armug‘oni Xislat” nashri munosabati bilan Haybatullohxo‘janing zamondoshlari Vasliy, Shavkat, Mulla Shohislom, Rizoyi, Miskin, Asadulloh G‘azanfar, Muhammad Yunus tarafidan jami 10 ta ta’rix yozilgan. Bayozda shoir Xislatning o‘zbek tilida bitgan ikki ta’rixi mavjud bo‘lib, ular ta’rix san’atining noyob namunalaridandir.

“Savg‘oti Xislat” bayoziga Xislat va Iffat, “Hadyayi Xislat”ga Kamiy Toshkandiy tarafidan ta’rixlar bitilgan bo‘lib, shoir bayozlarida jami 12 ta ta’rix mavjud. Ular asosan g‘azal janrida bitilgan.

Shaxslar vafoti munosabati bilan yozilgan she’rlar. “Tuhfayi Xislat”da “Marsiya az Xislat eshon” sarlavhali she’r chop etilgan. “Oldi rahm etmay ajal bir yori jonim bor edi” misralari bilan boshlanuvchi 35 misrali muxammas shoirning turmush o‘rtog‘i Sarvixon ayaning vafoti munosabati bilan yozilgan. “Savg‘oti Xislat”da Vasliy Samarqandiyning Sayidg‘ani Saidazimboy Toshkandiy vafotiga bag‘ishlangan ta’rix-marsiyasi o‘rin olgan. “Armug‘oni Xislat”da marsiya janrida yozilgan 3 ta she’r mavjud, ularning 2 tasi Shavkat Iskandariy qalamiga mansub va har ikkisi fors-tojik tilida bitilgan. Marsiyaning biri zamonasining mashhur shoirlaridan biri Muhyi Xo‘qandiyning vafotiga bag‘ishlangan.

Adabiy maktub shaklidagi she’rlar. Ma’lumki, milliy uyg‘onish davri adabiyotida maktubot janri takomilga erishdi. “Savg‘oti Xislat”dan maktub shaklidagi 7 she’r o‘rin olgan. Uarning 5 tasi Xislatga Xoib, Zululiy Namangoniy, Asiriy Xo‘jandiy, Pirimqori Andijoniy tomonidan bitilgan. Sarlavhadan maktublar kimga yo‘llanganini anglash mumkin: “Xoib otlig‘ shoirdin Xislat eshong‘a taqdimi salom” (36-b.), “Zululiy Namangoniydin Xislat eshong‘a taqdim o‘lunmish bir g‘azaldur” (55-b.) va h.k. She’rlar mazmunidan maktub egalarining Xislat bilan

samimiy munosabatda ekani, ularning shoir ijodiga chuqur hurmati anglashiladi. Xoib Xislatga ikki she'riy maktub yo'llagan. Ulardan biri "Savg'oyi Xislat"da chop etilgan. She'riy maktub g'azalda yozilgan bo'lib, 18 baytdan iborat. G'azalning ilk bandlarida Xislatning ezgu fazilatlar sohibi ekani e'tirof etiladi:

Assalom, ey Xislatokim, durri abkori karam,
Vassalom, ey afzali as'hobi ash'ori umam[48].

G'azal davomida Xislat "xodimi din", "xayrixohi shoiron", "masnadi axloq uzra jomi Jam", "sham'i anvori huzuri do'ston", "debochayi devoni ash'ori baland", "to'tiyi xushxoni gulzori suxan" kabi ohorli tashbehlar bilan tavsiflangan.

Shoir bayozlarida jami 11 ta maktub mavjud. Ular Xislat zamondoshlarining o'zaro munosabatlari, adabiy hamkorligi masalalarini o'rganishda ahamiyatlidir.

Davr voqeliklari aks etgan she'rlar. "Armug'oni Xislat"dan tuzuvchi ijodiga oid "Paxtadin" radifli muxammasi o'rin olgan. To'qqiz bandlik muxammas "*Har yili ekkan kishi xandon bo'lodur paxtadin"* satri bilan boshlangan. Tarixdan ma'lumki, XIX asrning oxiridan boshlab Markaziy Osiyo yerlari Rossiya to'qimachilik sanoatini ipak-paxta bilan ta'minlaydigan xom-ashyo manbayiga aylantirilgan edi. Mustamlakachilarning bu boradagi siyosati o'sha davr ijodkorlari, xususan, Xislat ijodiga ham ta'sir ko'rsatgan.

"Armug'oni Xislat"dagi Yusuf Saryomiyning "Dar marsiyayi echki", Sidqiy Xondayliqiyning "Toyim", "Kafshim" radifli muxammaslarida ham davr ijtimoiy hodisalari aks etgani kuzatiladi.

"Shoir asarlarining matn tarixi muammosi" nomli uchinchi bobning 3.1§ ***"Qissayi kurash az Xislat" asarining matn tarixi"*** masalasiga bag'ishlangan. Ijodkor asarlarining matn tarixini o'rganish ularning yaratilish va kitobat sanasi, matnning ijod qilinishi jarayonidan qo'lyozma va nashr nusxalarigacha bo'lgan harakatini o'z ichiga oladi. Chunki "Matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi"[49] .

Xislat ijodida kurash voqealari bayon etilgan masnaviy shaklidagi she'riy qissa alohida o'rin egallaydi. Ushbu she'riy qissa matnshunos Q. Pardayev tasnifi asosida tadqiq etildi. Ular quyidagilar: *a) asar yozilishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni; b) asarning qo'lyozma manbalardagi kitobat tarixi; v) asarning joriy nashrlardagi matni masalasi; g) asar ilmiy talqinlarining matn tarixi bilan bog'liqligi* [50].

Asar yozilishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni. Masnaviyning yozilish sababi quyidagi misralarda ifodalanadi:

---

[48] سوغات خصلت. Bayoz. Toshbosma. O'zR FASHI Asosiy fondi. Inv. № 347. – B. 33.

[49] Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни / Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари.– Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. – Б.12

[50] Пардаев Қ. Муқимий шеъриятида матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри (DSc)...дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 84.

Eshiting, ey yoronlar, aytayin so‘z,
Kiribon yangi yil, chun bo‘ldi Navro‘z.
Bayon aylay siza Ahmad kuroshin,
Qilur maydonda ul Rustam taloshin.

Anglashiladiki, Toshkent shahrida Ahmad polvon ishtirokida bo‘lib o‘tgan kurash musabaqasi shoir qalamga olgan she’rning yozilishiga sabab bo‘lgan.

Asarning qo‘lyozma manbalardagi kitobat tarixi. 869-raqamli qo‘lyozma bayoz hoshiyasining 16–23, asosiy matnning 495–498-sahifalarida kurash haqidagi masnaviyning ikki xil nusxasi ko‘chirilgan. غزل خصلت در تعرف كوراش *“G‘azali Xislat dar ta’rifi kurash”* deb sarlavhalangan matn 23 baytdan iborat. Hoshiyadagi matn esa قصى كوراش از خصلت “Qissayi kurash az Xislat” deb nomlangan, 32 bayt – 64 misradan tashkil topgan. Xislat dastlab she’riy qissasini g‘azal deb atagan, bizningcha, keyinchalik quyidagi omillar “Qissayi kurash” deb qayta nomlanishiga sabab bo‘lgan. Birinchidan, she’riy qissa masnaviy kabi (a-a, b-b, v-v) qofiyalanish tizimiga ega. Ikkinchidan, g‘azallar, odatda, 3-19 baytdan tashkil topadi. Xislatning she’riy qissasi miqdor jihatdan ham (32 bayt) bu talabga javob bermagan. Uchinchidan, voqelikning ifodalash tarzi g‘azaldan ko‘ra, masnaviy shaklida ancha erkin va qulayroq sanalgan. Bizningcha, qo‘lyozma bayozning asosiy matndagi 23 bayt she’rning dastlabki yozilgan variantidir. Keyinchalik bu she’r shoir ishtirokida mukammal holga keltirilgan va bayozning hoshiyasiga ko‘chirilgan.

Asarning joriy nashrlardagi matni masalasi. “Kurash qissasi”ning tabdili A.Jalolov tomonidan “G‘azallar” to‘plamida chop etilgan[51]. Ushbu nashrga 869-raqamli qo‘lyozma hoshiyasidagi matn asos qilib olingan. Nashrda qo‘lyozmadagi 21-bayt tushirib qoldirilgan:

Turordi o‘rtada olib duoni,
Faromush etmayin dildin Xudoni.

Bayoz hoshiyasida yozilgan nusxasi keyinchalik yaratilganini nazarda tutsak, A. Jalolov she’riy qissaning to‘liq va mukammal variantini nashr ettirgan.

Asar ilmiy talqinlarining matn tarixi bilan bog‘liqligi. 869-raqamli qo‘lyozmaning asosiy va hoshiyadagi matnlari “G‘azallar” va “Tarannum” to‘plamlariga asl holicha ko‘chirilgan. Boshqa manbalarda voqelikka mos holda talqin qilingan.

Ushbu bobning 3.2 § ***“Shoir she’rlari matnining tahriri xususiyatlari”*** deb nomlanadi. Xislat asarlarida matn tahriri ko‘p o‘rinda kuzatiladi. She’r matnlari ustida olib borilgan tahrirlar ba’zan muallifga taalluqli bo‘lsa, ba’zan nashrga tayyorlovchilar tomonidan amalga oshirilgan. Shu jihatdan bunday tahrirlarni 2 turga ajratish mumkin: 1) asliyat matnidagi tahrir; 2) nashr variantidagi tahrir.

Asliyat matnidagi tahrir. Shoir she’rlarida quyidagi tahrir turlari kuzatiladi:

a) so‘z va so‘z birikmalari bilan bog‘liq tahrirlar. Xislat ijodida Zokirjon Furqatning “Chiroylik” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisi alohida o‘rin egallaydi. “Chiroylik” taxmisi ilk bor 869-qo‘lyozma bayozga (146-bet) ko‘chirilgan. She’rning 3-bandida so‘z bilan bog‘liq tahrirlar uchraydi:

Xushtor jazosi shul deb kokil bilan urorsiz,

[51] Хислат. Ғазаллар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 76–79.

*Qilsam fig‘onu **faryod** parvo qimay kulorsiz,*
__Raqib bilan__ hamisha qo‘l ushlashib yurorsiz,
Oshiqni yo‘lda ko‘rib sekin-sekin so‘korsiz
Bildurmayin kishiga ozoringiz chiroylik.

“Armug‘oni Xislat”dagi variantida muallif ***“faryod”*** so‘zini “***nola”***ga, “***raqib bilan”*** ko‘makchili birikmani “***ag‘yor ilan”***ga almashtirgan. *Faryod, fig‘on, nola* so‘zlari o‘zaro sinonim sanalsa-da, bir-biridan farqli ma’no nozikliklariga ega. So‘z ma’nosini chuqur anglagan Xislat ikkita o‘kirib yig‘lashni ifodalovchi so‘z (fig‘on-u faryod)ning birini mungli tovush bilan ingrash(nola)ga o‘zgartiradi. Bunda oshiqning kayfiyati o‘quvchiga yanada ta’sirliroq bo‘lishi nazarda tutilgan. Shuningdek, **raqib bilan** so‘z shakli **ag‘yor ilan** birligiga ma’nodosh bo‘lsa-da, muallif mumtoz til unsurlaridan foydalanib, Furqat ijodiga yaqinlashishga intilgan.

b) misra va bandlar bilan bog‘liq tahrirlar. Xislat she’r misralarini ham to‘liq tahrirlagan holatlar ko‘p kuzatiladi. “Kulliyoti Farhod-u Shirin”(62-b.)da chop etilgan muxammasning 6-band 5-misrasi ilk nusxada shunday yozilgan:

Ul pariro‘ ishqida devonadirlar xos-u om,
Shul zamonni Shirini ham Layli ham Azrosidur.

“Armug‘oni Xislat”da 5-misra shunday tahrirlangan:

Ul pariro‘ ishqida devonadirlar xos-u om,
Ra’d emas qo‘bqon falaklardin bular g‘avg‘osidur.

Xislat ba’zan butun bandlarni to‘liq tahrirdan o‘tkazgani kuzatiladi. “Chiroylik” radifli taxmisning 7-bandi 869- qo‘lyozmada quyidagicha:

869-bayoz (146-bet)	Joriy imloda
میوه قیلور درختسیز باغ ملاحت ایچره شفتالیدور سوزونکیز باغ ملاحت ایچره نشپاتی دور تیلینکیز باغ ملاحت ایچره رحسارینکیزدور آلمه باغ ملاحت ایچره انجیردور لبینکیز انارینکیز چیرایلیک	*Meva qilur daraxtsiz bog‘i malohat ichra,* *Shaftolidur so‘zingiz bog‘i malohat ichra,* *Noshpotidur tilingiz bog‘i malohat ichra,* *Ruxsoringizdur olma bog‘i malohat ichra,* *Anjirdur labingiz anoringiz chiroylik.*

“Armug‘oni Xislat”da bu taxmisning ilk bandlari kabi tahrirlangan. Sharq mumtoz adabiyotida No‘shiravon adolat, Hotami Toy saxiylik ramzi sanalib, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Tarixi muluki Ajam” asarlarida bu haqda bir qancha hikoyatlar keltirilgan. Poetik timsollardan foydalangan shoir ma’shuqasini adolatda No‘shiravon, saxovatda Hotami Toy, husn-u latofatda tengi yo‘q pariga mengzagan:

No‘shiravon kabisiz adl-u adolat ichra,
Hotamdin ilgarisiz xayr-u saxovat ichra,
Yo‘q siz kabi parizod husn-u latofat ichra,
Ruxsoringizdur olma bog‘i malohat ichra,
Anjirdur labingiz anoringiz chiroylik.

Ko‘rinadiki, muallif tahrirlari natijasida taxmisning ushbu bandi badiiyat nuqtayi nazaridan ancha takomilga yetgan, she’rning ta’sir quvvati oshib, mukammalligi ta’minlangan.

Nashr variantidagi tahrir. Haybatullohxo‘ja Xislat nazmiy merosidan namunalar “G‘azallar” va “Tarannum” to‘plamlaridan joy olgan. Shuningdek, “Tirik satrlar” (1968) “Eng sara mumtoz ashulalar” (2018), “O‘zbek mumtoz she’riyati

antologiyasi” (2022) to‘plamlaridan shoir qalamiga mansub she’rlar o‘rin olgan. Ushbu nashrlardagi matnlar asliyat manbalar bilan qiyoslanganda ular o‘rtasida ma’lum matniy tafovutlar kuzatiladi, ya’ni she’rlar nashrga tayyorlanishda ma’lum tahrirlarga uchragan. Bunday tahrirlarni quyidagicha tasniflash mumkin: a) qisqartirilgan bayt va bandlar; b) harf va so‘zlarning o‘zgarishi.

Qisqartirilgan bayt va bandlar. Xislatning Haziniy g‘azaliga bog‘lagan “Kel” radifli taxmisning quyidagi 6-bandi “G‘azallar” to‘plamidan joy olmagan:

Sen kabi ko‘b nozanin kunduzda ko‘rsang do‘filik,
Ayb emas savdo uchun do‘konda tursang do‘filik,
Bokiy yo‘qdur har yerda bazmeki qursang do‘filik,
Xoh qishloq, xoh shaharda mayli yursang do‘filik,
Kechasi kokil solib bazm aylashib darocha kel.

Harf va so‘zlarning o‘zgarishi. Xislatning “Demasman” radifli g‘azali 869-qo‘lyozma hoshiyasiga ko‘chirilgan. G‘azal 5-bayti asliyatda quyidagicha:

Gar bo‘lsa labing bo‘sa qilish menga muyassar,
Kavsar suyi ham bodayi sahboni demasmen – “Bodayi sahbo” birikmasi tabdil variantda “bodayi hasbo” (A.Jalolov,17-b.), “bodayi humro” (“Tarannum”, 48-b.) tazida ifodalangan. Ma’lumki, tasavvuf adabiyotida boda, may, sharob, chog‘ir ruhiy poklik, ilohiy tajalliy timsoli, ishq va irfon (ma’rifat) ramzi sanaladi. “Sahbo” ushbu so‘zlarning ma’nodoshi bo‘lib, istilohda “qizil may, sharob” demakdir. “Tarannum” to‘plamidagi tabdilda “bodayi humro” birikmasi ham “qizil sharob” ma’nosini anglatadi.

Nashrlarda texnik sabablar bilan yuzaga kelgan xatolar ham mavjud. Shoirning “Aylansun” radifli g‘azali birinchi bayti 869-raqamli qo‘lyozma (300-bet)da:

Seni yuz ming parilar nozi javloningdin aylansun,
Tasaddiq tolayi zulfi parishoningdin aylansun.

A.Jalolov tabdil nashri (42-bet)da *tolayi zulf* izofali birikmasi nashr jarayonidagi texnik xato sababli *“nolayi zulf”*ga o‘zgargan. Bu kabi xatoliklar har ikki to‘plam va boshqa nashrlarda ham uchrab turadi. Bu esa shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish zaruratini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy umumlashmalarni chiqarish mumkin:

1. Xislatning o‘z qo‘li bilan yozgan tarjimai holi biografiyasiga oid birlamchi manbadir. Unga ko‘ra, shoirning tavallud sanasi haqidagi 1880, 1882-yil tarzidagi ixtilofli firklarga oydinlik kiritib, 1880-yil deb belgilash mumkin. Ushbu manbadan yana shoirning yoshligidan adabiyotga oshno bo‘lgani, ustozi Karimbek Kamiydan she’riyat sirlarini o‘rgangani, “Ko‘kaldosh” madrasasida tahsil olgani anglashiladi. Shoir nashr ettirgan bayozlaridagi she’rlar ham Xislat hayotiga oid ma’lumotlarni to‘ldiradi. “Armug‘oni Xislat”da chop etilgan“Dog‘i farzand” marsiyasi uning ikki farzandi – Malohatxon va Nisbatxon ismli farzandlarining vafotiga bag‘ishlangan. “Marsiya az Xislat eshon” marsiyasi Sarvixon ayaning vafotidan qayg‘uga tushgan shoirning iztiroblarini anglatadi.

2. Mo‘minjon Toshqinning “Toshkent shoirlari va ularning tarjimayi hollari” tazkirasi shoir bilan zamondosh, hamfikr bo‘lgan kishining xotiralari sifatida qimmatlidir. Tazkirada shoir ijodiga mansub asarlar, uning maslakdoshlari, ko‘rinishi, xarakteri, bayozlar nashr ettirishdagi tashabbusi, umri davomida kechirgan qiyinchiliklari, vafotiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiy”si, zamondosh bosma manbalardagi qaydlar hamda zamondoshlari va qarindoshlarining xotira shaklidagi ma’lumotlari ilmiy biografiyasini tiklashda asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

3. Xislat Yusuf Saryomiy, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Muhyi Xo‘qandiy, Asiriy Xo‘jandiy, Mirahmadxon Miriy kabi zamonasining yetuk shoirlari bilan ustozi Karimbek Kamiy orqali tanishadi. Ular bilan faol ijodiy muloqotda bo‘ladi, bedilxonliklarda ishtirok etadi. O‘zaro ijodiy hamkorlik va o‘qib-izlanishlar natijasida o‘zi ham she’riyatda ustozlik maqomiga erishadi.

4. Xislat qalamiga mansub nazmiy asarlar 2000 misraga yaqin, ular lirikaning g‘azal, muxammas, murabba, qit’a, fard, qasida janrlarida yozilgan. Shoir ijodiga Navoiy, Fuzuliy, Huvaydo, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Kamiy kabi shoirlarning adabiy ta’siri katta bo‘lib, ularning g‘azallariga taxmis, tatabbular bog‘lagan.

5. Haybatullohxo‘ja o‘z zamonasining ma’rifatparvarlari qatorida tarjimonlik va noshirlik borasida ham samarali faoliyat olib bordi. “Shohnoma” asosida yaratilgan “Qissayi Barzuyi sher”, Ubayd Zokoniyning “Mush-u gurba” (“Mushuk va sichqon”), Omiliyning “Non va holva” asarlarini fors tilidan tarjima qilib nashr ettirgan. Nasrullo Oxundiy, Mo‘minjon Toshqin bilan birgalikda Nizomiy Ganjaviyning “Layli va Majnun”ini fors-tojik tilidan tarjima qilgan. Umar Boqiyning Navoiy “Xamsa”si asosida yaratilgan nasriy qissalarini “Kulliyoti Farhod-u Shirin”, “Layli va Majnun kitobi” nomi ostida chop qildirgan.

6. Xislat ijodining kamolot davrlari 1910–1915-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu yillarda Haybatullohxo‘ja Xislat o‘zining “Hadyayi Xislat”, “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat” bayozlarini nashr ettirgan. Armug‘oni Xislat” bayozidan jami 53 shoirning 145 ta; “Savg‘oti Xislat”da 21 shoirning 64 ta; “Hadyayi Xislat”da 7 ijodkorning 20 ta; “Tuhfayi Xislat”da 10 nafar shoirning 23 she’ri o‘rin olgan.

7. “Armug‘oni Xislat” bayozi hofiz Mulla To‘ychi Toshmuhammedov repertuaridagi she’rlardan tashkil topgan. Haybatullohxo‘ja bayozga she’rlarni tartiblashda noan’anaviy usuldan foydalangan. Bayozdagi she’rlarning qaysi maqomda kuylanishi sarlavhasiga yozib qo‘yilgan. Maqom nomlari (“Dugoh”, “Chorgoh”, “Ushshoq”, “Navo”, “Bayot”, “Girya”) asosida g‘azal va muxammaslarni joylashtirgan. Masalan, “Savti dugoh” maqomida kuylanuvchi she’r matnidan keyin yana shu kuyga mos boshqa she’r o‘rin olgan. Bayozidagi 78 she’rning sarlavhasiga Shashmaqomning qaysi turida kuylanishi yozilgan.

8. “Tazkirayi Qayyumiy”dagi Iffat, Roiq, Xoib, Hoji Mirzo Ya’qub, Mir Maqsud, Munis Toshkandiy, Soqiy kabi shoirlarning hayoti va ijodiy merosini ommaga yetkazishda “Savg‘oti Xislat” va “Armug‘oni Xislat” bayozlari tayanch manba bo‘lib xizmat qilgan. Muqimiy, Miskin, Muhayyir, Zavqiy kabi ko‘plab

shoirlar qalamiga mansub ayrim she’rlar matnlari Xislat bayozlaridan boshqa joyda uchramaydi. Yusuf Saryomiyning “Echkiginam” hajviy she’ri ham ilk bor “Armug‘oni Xislat”da nashr etilgan.

9. Xislat bayozlaridan o‘rin olgan shoirlar hududiy jihatdan quyidagicha tasnif etildi: Hirotdan: Navoiy, Hoziq; Toshkent va unga yaqin joylardan: Akmalxonto‘ra, Kamiy, Shavkat, Munis Toshkandiy, Xoib, Roiq, Miskin, Xislat, G‘ulomiy Toshkandiy, Soqiy, Mulla Abdulloh G‘azanfar, Mulla Shohislom kotib, Hoji Mirza Ya’qub, Mir Maqsud, Mirza Ahmad qori; Samarqanddan: Vasliy, Hilmiy, Noqis, Pisandiy, Fikriy; Buxorodan: Lutfiy Buxoriy; Nasafdan: Sayyido, Andijondan: Pirimqori, Husayn Maxdum Rizoyi; Qo‘qondan: Amiriy, Xusrav, Toyyib, Muqimiy, Biymiy, Furqat, Zavqiy, Azimiy, Qoriy, Muhayyir, Zamiriy; Namangandan: Mashrab, Fazliy, Zululiy, Muxlis; Xo‘janddan**:** Asiriy, Shahidiy; Turkistondan: Tajalliy, G‘urbatiy, Saryomiy; Xorazmdan: Komil Xorazmiy, G‘iyosiy.

10. Bayozlardagi she’rlarni mazmun-mundarijasiga ko‘ra diniy-falsafiy, ishqiy, ijtimoiy nazm namunalari tarzida tasnif etish mumkin. Bayozdagi ijtimoiy mavzudagi she’rlar quyidagi omillar asosida yaratilgan: a) bayoz nashr etilishi munosabati bilan; b) shaxslar vafoti munosabati bilan; s) shoirlarning bir-birlariga yuborgan adabiy maktublari; d) davr voqeliklarini aks ettirgan she’rlar. Xislat bayozlaridan she’riy to‘plamlari nashr etilishi munosabati bilan yozilgan 12 ta ta’rix o‘rin olgan. Shaxslar vafoti sababidan yaratilgan 5 ta ta’rix-marsiya, shoirlarning turli munosabat bilan bir-birlariga yo‘llagan 11 ta adabiy maktub shaklidagi she’rlar keltirilgan. Ular Xislat ijodiy biografiyasini, o‘sha davr adabiy hayotini, ijtimoiy voqelikning badiiy adabiyotdagi ifodasini hamda shoirlarning o‘zaro ijodiy muloqotlarini o‘rganishda qimmatli material berishi jihatidan muhimdir.

11. Xislat o‘z asarlarini yozib tugatgandan so‘ng ular ustida turli tahrirlar olib borgan. Shuningdek, tabdil nashrlarni asliyat matnlar bilan taqqoslanganda ham tafovutlar kuzatiladi. Shu jihatdan, bunday tahrirlarni ikki turga ajratib o‘rganish mumkin: *a) asliyat matnidagi tahrir; b) nashr variantidagi tahrir.* Ushbu tahrirlar shoir asarlari matn tarixini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega.

12. Asliyat matnidagi tahrirlar shoir Xislat tomonidan olib borilgan bo‘lib, muallif: a) *so‘z va so‘z birikmalari bilan bog‘liq tahrir*; b) misralar va bandlar bilan bog‘liq tahrirlar tarzida namoyon bo‘ladi. Bu turdagi tahrirlar shoirning asar badiiyatini yuksaltirish, fikr ifodasini tiniqlashtirish hamda poetik uslubga sayqal berish maqsadida matn ustida muttasil ishlaganidan dalolat beradi.

13. XX asr boshlari matbuoti, tazkiralar, qo‘lyozma va toshbosma bayozlar kabi birlamchi manbalar bilan joriy nashrlardagi matnlar qiyoslanishi natijasida Xislatning turli janrlarda yaratilgan 200 misraga yaqin she’rlari aniqlangani shoir ijodiy merosi tadqiqini keng ko‘lamda olib borish zaruratini anglatadi. Shoir she’rlarining ilk manbalardagi qiyosiy taqdiqi ularning nashrlari talab darajasida emasligini ko‘rsatadi. Bu esa shoir she’rlarining talab darajasidagi mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

РАСУЛОВА ШАХНОЗА МУСТАФАКУЛОВНА

ХИСЛАТ И ЕГО ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ

10.00.10 – Текстология и литературное источниковедение

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2022.4.PhD/ Fil3026.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsuull.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Жабборов Нурбой Абдулхакимович** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Якубов Исламжон Ахмеджанович** доктор филологических наук, профессор
	Исломова Сохибахон Исмоилжоновна доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Ведущая организация:	**Государственный музей литературы имени Алишера Навои АН РУз**

Защита диссертации состоится 17 апреля 2025 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100066, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуф Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@tsuull.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100066, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуф Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@tsuull.uz).

Автореферат диссертации разослан «5» 04 2025 года.

(протокол реестра рассылки № 1 от «5» 04 2025 года)

Х.А.Дадабоев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

К.У.Пардаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Ш.С.Сирожиддинов
Председатель научного семинара Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой текстологии проводятся последовательные научные исследования рукописных источников художественной литературы, их видов и значений в изучении истории текста. Сведения из первоисточников, сравнительная типология рукописей имеют особое значение, поскольку позволяют восстановить наиболее достоверные тексты произведений автора. Такие научные проблемы, как история текста, научно-критический текст, сопоставление рукописных авторских копий литературных произведений с их печатными вариантами, составляют основу текстологии и литературного источниковедения.

Постепенное совершенствование мировой текстологии и достигнутые научные результаты свидетельствуют о том, что наличие обширных рукописных источников далёкого прошлого говорят о корнях культуры и литературно-эстетического мышления нации, также имеющего древние истоки. Именно поэтому рукописи узбекской литературы привлекают внимание учёных всего мира. Появление технологии литографической печати во второй половине XIX – начале XX веков положило начало возникновению литографических изданий. С началом издания газеты появился еще один литературный источник. Теперь ученые мира имеют возможность исследовать образцы литературы не только по рукописным и литографическим источникам, но и по материалам прессы того времени. Это, в свою очередь, расширило объем источников в области текстологии.

Изучение произведений представителей узбекской национальной литературы эпохи возрождения по первоисточникам, их оценка на основе последних достижений текстологии является одной из актуальных проблем. Ибо: «Сегодня, когда наша Родина вступает в новый этап своего развития, для нас как никогда важны новые научные исследования нашей истории и культуры»[52]. В конце XIX – начале XX веков в узбекской литературе и, в целом, во всех сферах общества начался период коренных перемен. Повышение просветительского уровня нашего народа, информирование о новейших достижениях мировой науки, объяснение своих прав и идеи национального возрождения нашли свое отражение в литературе того периода. Литературное наследие одного из выдающихся представителей ташкентской литературной среды Сайида Хайбатуллохходжи Сайида Орифходжи угли Хислата (1880–1945) выделяется этими особенностями. Несмотря на то, что известный и признанный поэт, переводчик, баязист, издатель и писатель оставил богатое литературное наследие, до сих пор не была создана его научная биография, а в монографическом плане не исследованы его поэтические произведения. Изучение источников произведений поэта, творившего в таких лирических жанрах, как газель, мухаммас, мурабба, касыда, фард, оценка его творческой деятельности на примере баязов «Armug‘oni Xislat», «Tuhfayi Xislat», «Hadyayi Xislat», «Savg‘oti Xislat», восстановление научной биографии

[52] Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 33.

Хайбатуллохходжи, исследование истории текста почти 2000 строк его поэтического наследия, дошедших до нас, являются актуальными задачами, стоящих перед текстологией и литературным источниковедением.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 21 октября 2019 года №УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», от 20 октября 2020 года №УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», распоряжении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года №124-Ф «О проведении международной конференции «Актуальные вопросы по изучению и пропаганде узбекской классической и современной литературы на международном уровне», постановлениях от 3 марта 2017 года №117 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», от 10 февраля 2021 года №61 «О мерах по обеспечению поэтапного полного перехода на узбекский алфавит, основанный на латинской графике», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к этой сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и способы их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Отношение к поэзии и личности Хислата было выражено еще при его жизни. После издания «Armug‘oni Xislat» Мухсини в своем стихотворении «Tavsifi Xislat eshon» охарактеризовал его как самого активного и предприимчивого автора среди ташкентских поэтов[53]. Переводчик «Bahrom va Gulandom» Абдуллох Мирзакаримбой высоко оценивает поэтическое мастерство Хислата и его издательскую деятельность[54]. Было высказано мнение и о «Hadyayi Xislat»[55].

В 1957 году статья «Xislat», опубликованная в журнале «Sharq yulduzi» («Звезда Востока»), положила начало широкому изучению творчества поэта. После 60-х годов стихи поэта были опубликованы в газете «Toshkent oqshomi» («Вечерний Ташкент») и сборнике «Tirik satrlar» («Живые строки»)[56].

[53] Muhsiniy. Tavsifi Xislat eshon //Turkiston viloyatining gazeti, 1913-yil 7-aprel. – №27.
[54] Bahrom va Gulandom. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. – №1229. – B. 4.
[55] Олимжон Ҳ. Жадид адабиётининг синфий моҳияти масаласига. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 157–158.
[56] Зокиров М. Хислат// Тошкент оқшоми. 1967, 15 март. – №62 (217); Тирик сатрлар: Танланган шеърлар (Тўпловчи: М. Зокиров; муҳаррир О.Шарафиддинов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968. – Б. 100.

Абдухамид Жалолов опубликовал статьи о жизни и творчестве Хислата, а также и его избранные произведения[57]. Много места он посвятил своей докторской диссертации[58], была издана брошюра «Литературный портрет о творчестве Хислата»[59]. Однако в этих публикациях творчество Хислата рассматривается, в основном, с классовой точки зрения, а его произведения интерпретируются в соответствии с идеологией.

В книге воспоминаний Б.Насриддинова, посвященной жизни и творчеству Туйчи хофиза, приведены важные сведения о Хислате[60]. М.Хамидова, наряду с писателями-баязистами, также упоминает особенности баязов поэта[61]. Краткое научное описание баязов Хислата изложено в статьях Р.Ходжиевой[62] и Б.Абдуллаевой[63]. Сведения о жизни и литературной деятельности поэта также отражены в некоторых мемуарах[64] и тазкирах. Среди них «Toshkent shoirlarining tarjimayi hollari»[65] Муминжона Тошкина и «Tazkirayi Qayyumiy»[66] Пулотжона Кайюмова.

Издание в годы независимости баяза «Tuhfayi Xislat» [67] с предисловием У.Отажона прославило творчество поэта на широкую общественность. В лекциях, монографиях и статьях Б.Косимова[68] и Н.Каримова[69] большое внимание уделяется творчеству поэта. Аналитические взгляды на биографию и литературное наследие поэта изложены в кандидатских и докторских диссертациях[70]. В 2007 году была опубликована статья Мухаммадали

---

[57] Жалолов А. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. – №1. – Б. 35–36; Ўзбек ёзувчиларининг таржимаи ҳоли. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – №4. – Б. 70–71; “Армуғони Хислат” баёзи саҳифаларини варақлаб // Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1969, 30 май. – №43. Хислат. Ғазаллар (Тузувчи ва сўзбоши муаллифи: А. Жалолов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 96.

[58] Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XIX аср охири – XX аср бошлари). Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 254.

[59] Жалолов А. Озодликни улуғлаб. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 62.

[60] Насриддинов Б. Тўйчи ҳофиз (Ҳаёти ва ижоди ҳақида). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 75–76.

[61] Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 112–119.

[62] Ҳожиева Р. Тошбосма баёзлар ўзбек адабиётини ўрганишда муҳим манба // Адабий мерос. – Тошкент, 1980. – №1 (13) – Б. 87–95.

